TIL ME'YORLARI VA IJTIMOIY TARMOQLAR: DAVLAT TILIGA TA'SIRI

Maxmudova Mohlaroy Mamirjon qizi
Andijon davlat chet tillari universiteti
Xorijiy filologiya va turizm fakulteti IF
Ingliz tili yo‘nalish ikkinchi bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24202868

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning davlat tili me'yorlariga ta'siri, internetda o‘zbek tilidan foydalanish holatlari yoritilgan. Xususan, ijtimoiy tarmoqlarda imlo qoidalariga rioya qilmaslik, so‘zlarni qisqartirib yozish, chet tillaridagi so‘zlardan ortiqcha foydalanish kabi holatlar tahlil qilingan. Shuningdek, internetning o‘zbek tilini rivojlantirishdagi imkoniyatlari va til madaniyatlarini saqlashdagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit So‘Zlar: Davlat tili, til me'yorlari, ijtimoiy tarmoqlar, internet, o‘zbek tili, imlo qoidalari, yozma nutq, til madaniyati, savodxonlik, chet tilidagi so‘zlar.

KIRISH

Til har bir millatning o‘zligini, madaniyatini va tarixini aks ettiruvchi muhim boylikdir. Uning rivojlanishi va saqlanishi jamiyatning tilga bo‘lgan munosabati hamda undan qay darajada to‘g‘ri foydalanishiga bog‘liq. Shu sababli davlat tilining me'yorlarini saqlash, yozma va og‘zaki nutq madaniyatini rivojlantirish bugungi kunning muhim masalalaridan biri xisoblanadi.

Hozirgi axborot texnologiyalari rivojlangan davrda ijtimoiy tarmoqlar insonlar hayotining ajralmas qismiga aylanib qoldi. Instagram, Telegram, TikTok va boshqa platformalar orqali odamlar har kuni fikr almashmoqda, yangiliklarni kuzatadi va turli mavzularda yozishishmoqda. Bu jarayon tilning rivojlanishiga ham o‘z ta'sirini ko‘rsatmoqda.

Bir tomondan, ijtimoiy tarmoqlar o‘zbek tilidagi ma'lumotlar, maqolalar va ijodiy materiallarning keng tarqalishiga imkon yaratib kelmoqda. Ikkinchi tomondan esa, so‘zlarni noto‘g‘ri yozish, harflarni almashtirish, so‘zlarni qisqartirish va boshqa tillardagi so‘zlarni keragidan ortiq ishlatish kabi holatlar ham ko‘payib bormoqda. Bunday jarayonlar esa ayrim hollarda adabiy til me'yorlarining buzilishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Ayniqsa, yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish keng tarqalganini hisobga olsak, internetdagi yozish madaniyatiga e'tibor qaratish muhim. Chunki insonning kundalik yozishmalardan shakllangan odatlari uning umumiy yozma nutqiga ham ta'sir ko‘rsatishi mumkin.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi ijtimoiy tarmoqlarning davlat tiliga ko‘rsatayotgan ijobiy va salbiy ta'sirlarini o‘rganish, mavjud muammolarni tahlil qilish va internet muhitida o‘zbek tilining me'yorlarini saqlab qolish bo‘yicha takliflarni ilgari surishdan iborat.

1. Ijtimoiy tarmoqlarning o‘zbek tiliga ta'siri

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar nafaqat axborot almashish, balki tilning rivojlanishi va o‘zgarishiga ham ta'sir ko‘rsatuvchi muhim vositaga aylanib kelmoqda. Instagram, Telegram, TikTok, Facebook kabi platformalarda har kuni millionlab insonlar o‘z fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda ifoda etmoqdalar. Bu esa o‘zbek tilining internet muhitida keng tarqalishi va yangi imkoniyatlarga ega bo‘lishiga xizmat qilib kelmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy jihatlaridan biri — o‘zbek tilidagi ma'lumotlar va ijodiy materiallarning ko‘payishidir. Bugungi kunda turli blogerlar, jurnalistlar, o‘qituvchilar va ijodkorlar o‘z sahifalarida ona tilimiz bilan foydali ma'lumotlar joylashtirib kelishmoqda. Bu holat o‘zbek tilining zamonaviy axborot makonidagi o‘rnini mustahkamlashga yordam beradi.

Biroq ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish jarayonida ayrim salbiy holatlar ham yo‘q emas. Xususan, foydalanuvchilar orasida so‘zlarni qisqartirib yozish, ayrim harflarni tushirib qoldirish, tinish belgilariga e'tibor bermaslik kabi odatlar keng uchrab kelmoqda. Masalan, «nima» so‘zining «nma», «kerak» so‘zining «kere», «bo‘ladi» so‘zining «bulad» shaklida yozilishi norasmiy yozishmalarda uchraydi. Bunday yozuv shakllari kundalik muloqotlarimizda tushunarli bo‘lishi mumkin, ammo rasmiy va ilmiy yozishmalarda adabiy til me'yorlariga mutlaqo mos kelmaydi.

2. Chet tillarining ta'siri va so‘zlardan foydalanish

Ijtimoiy tarmoqlarda kuzatilayotgan yana bir holatlardan — chet tillaridagi so‘zlarning o‘zbekcha nutqda ko‘p ishlatilishidir. Ayniqsa, ingliz va rus tillariga oid so‘zlar kundalik yozishmalarda tez-tez uchramoqda. Ayrim foydalanuvchilar o‘zbekcha muqobili bo‘lgan so‘zlarning o‘rniga chet tilidagi variantlardan foydalanishni afzal ko‘rmoqdalar.

Masalan, «like bosish», «post joylash», «story qo‘yish», «comment yozish» kabi iboralar ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotda odatiy holga aylangan. Albatta, zamonaviy texnologiyalar bilan birga yangi atamalarning tilimizga kirib kelishi tabiiy jarayon xisonlanadi. Biroq mavjud o‘zbekcha so‘zlardan foydalanish imkoniyati bo‘lsa, ularga ham e'tibor qaratish lozim.

Bunda asosiy maqsad chet tillaridan kirib kelgan barcha so‘zlarni rad etish emas, balki o‘zbek tilining imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanish va uning boyligini saqlash va uni ko‘rsatishdan iborat.

3. Yoshlar va yozish madaniyati

Ijtimoiy tarmoqlarning tilga ta'siri haqida gap ketganda, yoshlarning o‘rnini alohida ta'kidlash muhim. Chunki yoshlar internetdan faol foydalanuvchilar hisoblanadi. Ular ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilish, har xil yangiliklarni kuzatish, fikr bildirish va turli ma'lumotlarni tarqatish va qabul qilish orqali yozma nutq tajribasini shakllantirishmoqdalar.

Ayrim hollarda internetdagi norasmiy yozish uslubi kundalik hayotdagi yozma nutqqa ko‘chib o‘tishi ham e'tibordan holi emas. Masalan, o‘quvchilar yoki talabalar rasmiy topshiriqlarni bajarishda ham qisqartmalardan foydalanishi, imlo qoidalariga yetarlicha e'tibor bermasligi mumkin. Shu sababli internetdagi yozish madaniyati va savodxonlik masalalariga jiddiy yondashish zarur xisoblanadi.

Menimcha, bu muammoni hal qilish uchun yoshlarni ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni mutlaqo cheklash emas, balki ularda to‘g‘ri yozish madaniyatini shakllantirish muhimroqdir. Chunki internet inson uchun katta imkoniyatlarni yaratib kelmoqda. Undan qanday foydalanish esa, avvalo, foydalanuvchining o‘ziga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

4. Davlat tilining internet muhitidagi mavqeini mustahkamlash

Davlat tilining rivojlanishi faqat rasmiy hujjatlar yoki ta'lim muassasalari bilan cheklanib qolmasligi juda ham muhim. Bugungi kunda internet ham til rivojlanishining muhim maydonlaridan biridir. Shu sababli ijtimoiy tarmoqlarda sifatli o‘zbekcha kontent yaratish, imlo qoidalariga rioya qilish va foydalanuvchilarning til madaniyatini oshirishga alohida e'tibor berish lozim.

Buning uchun ta'lim sahifalar va bloglar sonini ko‘paytirish, o‘zbek tilidagi foydali materiallarni keng tarqatish, imlo xatolarini kamaytirishga qaratilgan loyihalarni rivojlantirish va ularning sifatini oshirish mumkin. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va internet nashrlari ham adabiy til me'yorlariga amal qilish orqali boshqalarga namuna bo‘lishi lozim.

Muallifning fikricha, ijtimoiy tarmoqlar davlat tilining rivojlanishiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Muhimi, ushbu imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanish, o‘zbek tilining boyligini asrash va zamonaviy axborot muhitida uning mavqeini mustahkamlashdir.

Menimcha, ijtimoiy tarmoqlarni tilimizga zarar yetkazuvchi vosita sifatida baholash to‘g‘ri xisoblanmaydi. Chunki har qanday texnologiyaning foydali yoki salbiy ta'siri undan qanday foydalanishimizga bog‘liqdir. Eng muhimi, internetdagi erkin muloqot bilan adabiy til me'yorlarini bir-biridan farqlay bilishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni** (yangi tahriri). – Toshkent: O‘zbekiston, 1995.
2. **Begmatov E.** Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985. – 200 b.
3. **Begmatov E., Boboyeva A., Asomiddinova M.** Adabiy norma va nutq madaniyati. – Toshkent: Fan, 1983. – 152 b.
4. **Mahmudov N.** O‘qituvchi nutq madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – 188 b.
5. **Mahmudov N.** Tilimizning tilla sandig‘i. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 240 b.
6. **Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo.** Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.
7. **Mamatov A.E.** Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. – Toshkent: Fan, 1991. – 274 b.
8. **Saidxonov M.** Nutq madaniyati va mutolaa san’ati. – Toshkent: Fan, 2008. – 112 b.
9. **Abduazizov A.** Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq, 2010. – 176 b.
10. **Mengliyev B.** Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2018. – 200 b.